Xalq so‘zi

O‘zbekiston — kelajagi buyuk davlat

2026-YIL – MAHALLANI RIVOJLANTIRISH VA JAMIYATNI YUKSALTIRISH YILI

1991-yil 1-yanvardan chiqa boshlagan ● WWW.XS.UZ ● E-mail: Info@xs.uz ● 2026-yil 29-iyul, № 153 (9324) Chorshanba

Saytimizga o‘tish uchun QR-kodini telefoningiz orqali skaner qiling.

SAUDIYA ARABISTONI BILAN ISTIQBOLLI LOYIHALAR AMALGA OSHIRILADI

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Saudiya Arabistoni Podshohligi sog‘liqni saqlash vaziri Fahad bin Abdulrahmon al-Jalajil boshchiligidagi delegatsiyani qabul qildi.



Uchrashuv avvalida oliy martabali mehmon davlatimiz rahbariga Saudiya Arabistoni Podshohi Salmon bin Abdulaziz Ol Saud va Valiahd, Bosh vazir Muhammad bin Salmon Ol Saudning salomi va eng ezgu tilaklarini yetkazdi.

So‘nggi yillarda hamkorlik jadal rivojlanib borayotgani mamnuniyat bilan qayd etildi. Ayniqsa, “ACWA” kompaniyasi bilan yirik qo‘shma loyihalar amalga oshirilayotgani alohida ta’kidlandi.

Tashrif doirasida Saudiya Arabistonining yetakchi kompaniyalari rahbarlaridan iborat nufuzli delegatsiya bilan samarali muzokaralar o‘tkazilib, qator kelishuvlarga erishildi.

Muloqot davomida mamlakatimizda tibbiyot sohasini raqamlashtirish va modernizatsiya qilish, farmatsevtika tarmog‘ini tartibga solish, kadrlar tayyorlash, ko‘p tarmoqli shifoxona barpo etish masalalariga e’tibor qaratildi.

Uchrashuv yakunida yangi loyiha hamda tashabbuslarni amalga oshirishni nazarda tutuvchi “Yo‘l xaritasi”ni ishlab chiqish va qabul qilishga kelishib olindi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Matbuot xizmati surati.

O‘ZBEKISTON PREZIDENTI AMALIY TASHRIF BILAN QOZOG‘ISTONDA BO‘LADI

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Qozog‘iston Respublikasi Prezidenti Qosim-Jomart Toqayevning taklifiga binoan 29-iyul kuni amaliy tashrif bilan ushbu mamlakatda bo‘ladi.

Davlatimiz rahbari Ostona shahrida “Kelajak o‘yinlari” uchinchi xalqaro musobaqasining tantanali ochilish marosimida ishtirok etadi.

“Kelajak o‘yinlari” o‘zida an’anaviy sport turlari va ularning raqamli shakllarini mujassam etgan.

Musobaqa 29-iyuldan 9-avgustga qadar 50 dan ortiq mamlakatlar vakillari, jumladan, O‘zbekiston sportchilari ishtirokida o‘tkaziladi.

O‘zA.

Hamkorlik

O‘ZBEKISTON VA QOZOG‘ISTON BIRLIGI – MINTAQAMIZNING PORLOQ KELAJAGI KAFOLATI

O‘zbek va qozoq xalqi bir o‘zandan suv ichgan, tarixi, taqdiri, ildizi tutash el, urf-odatlari, qadriyatu an’analari yaqin. Shu bois azaldan bu ikki xalq o‘rtasida quda-andachilik, qarindoshlik aloqalari mustahkamlanib kelgan. Ayni paytda xalqlarimiz qadim zamondan tinchlik va murosada, bir-birini qo‘llab-quvvatlagan holda yashab kelmoqda. Ta’bir joiz bo‘lsa, geografiya bizni yaqin qo‘shni qilgan bo‘lsa, tarix bizni birodarlarga aylantirdi. Shu sababli, bu ikki millatning turmush tarzida, tilida, adabiyoti va madaniyatida umumiy jihatlar ko‘plab uchraydi.

Qozog‘iston – O‘zbekistonning eng yaqin do‘sti va ittifoqchisi. Mamlakatlarimiz o‘rtasida ittifoqchilik munosabatlari to‘g‘risida bitim imzolangani va bordi-keldilarimiz ana shu ruhda davom etayotgani buning yaqqol isboti. Bizni yagona o‘tmish bog‘lab turganidek, birgalikdagi rivojlanishning istiqbolli yo‘llari bardavom bo‘lishiga ishonchimiz komil.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Qozog‘iston Respublikasi Prezidenti Qosim-Jomart Toqayevning taklifiga binoan 29-iyul kuni amaliy tashrif bilan ushbu mamlakatda bo‘lishi ana shu ittifoqchilik munosabatlarini yangi bosqichga olib chiqishi, shubhasiz.

Davlatimiz rahbari Ostona shahrida “Kelajak o‘yinlari” uchinchi xalqaro musobaqasining tantanali ochilish marosimida qatnashadi.

Prezidentimizning Qozog‘istonga amaliy tashrifi nafaqat sport sohasidagi muhim voqelik, balki ikki tomonlama ittifoqchilik munosabatlari va mintaqaviy integratsiya nuqtayi nazaridan juda katta geosiyosiy ahamiyatga ega.

“Kelajak o‘yinlari” – bu an’anaviy sport turlari va ularning raqamlashtirilgan shakllarini o‘zida mujassamlagan mutlaqo yangi, zamonaviy sport turi bo‘lib, u xalqaro miqyosda “Fijital” (Phygital – physical + digital, ya’ni jismoniy va raqamli) konsepsiyasi deb ataladi. Ushbu musobaqaning an’anaviy sportdan farqi va o‘ziga xosligi bor. Masalan, fijital-futbol bo‘yicha bahs olib borayotgan jamoalar dastlab kompyuter yoki konsolda (e-sports) virtual futbol o‘ynashadi, so‘ngra darhol haqiqiy maydonga chiqib, minifutbol bo‘yicha kuch sinashadi. Ikkala bosqichda to‘plangan gollar yoki ochkolar umumlashtirilib, g‘olib aniqlanadi. Xuddi shu tartib fijital-basketbol, fijital-poyga, lazertag va jangovar yakkakurashlarda ham qo‘llaniladi. Musobaqa dasturidan dronlar poygasi, robotlar jangi va sun’iy intellekt texnologiyalari qo‘llaniladigan boshqa zamonaviy yo‘nalishlar ham joy olgan.

Ostona shahrida 29-iyuldan 9-avgustga qadar bo‘lib o‘tadigan uchinchi xalqaro musobaqada dunyoning 50 dan ortiq mamlakatlaridan kelgan eng kuchli kibersportchilar va atletlar, jumladan, O‘zbekiston vakillari ham g‘oliblik uchun bahs olib boradi.

2

O‘ZBEKISTON PREZIDENTI YANGI TAYINLANGAN XORIJIY ELCHILARDAN ISHONCH YORLIQLARINI QABUL QILDI

28-iyul kuni xorijiy davlatlarning mamlakatimizga yangi tayinlangan elchilari tomonidan ishonch yorliqlarini topshirishga bag‘ishlangan tantanali marosim o‘tkazildi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev favqulodda va muxtor elchilar – Italiya Respublikasidan Guido de Sanktis, Falastin Davlatidan Vaill Battrexi, Saudiya Arabistoni Podshohligidan Saad Abu Xaymid, Kuvayt Davlatidan Turki Al-Mekrad, Jazoir Xalq Demokratik Respublikasidan Jamila Ashur, Malayziyadan Rafeda binti Abdul Aziz, Pokiston Islom Respublikasidan Muhammad Mudassir Tipu, Ozarbayjon Respublikasidan Rashad Mamedov va Qozog‘iston Respublikasidan Yerali Tugjanovlarning ishonch yorliqlarini qabul qilib oldi.

Davlatimiz rahbari diplomatik vakolatxonalar rahbarlarini Yangi O‘zbekistondagi sharafli missiyasi boshlangani bilan chin qalbdan samimiy tabrikladi.

Dunyoda turli geosiyosiy ziddiyatlar tobora avj olayotgan hozirgi murakkab davrda diplomatlarning mas’uliyatli faoliyati har qachongidan ham dolzarb ahamiyat kasb etishi ta’kidlandi.

Prezidentimiz har bir elchiga murojaat qilib, ular vakillik qilayotgan davlatlar bilan hamkorlikni yanada kengaytirish bo‘yicha vazifalarga alohida to‘xtalib o‘tdi.

Italiya katta siyosiy va iqtisodiy salohiyatga ega muhim sherik ekani ta’kidlanib, “yashil” energetika, metallurgiya, kimyo, qishloq xo‘jaligi, sog‘liqni saqlash, farmatsevtika, ta’lim va turizm sohalaridagi loyihalar amalga oshirilayotgani, Toshkent shahrida Turin politexnika va Piza universitetlari filiallari samarali faoliyat yuritayotgani qayd etildi.

O‘zbekiston yetakchisi Lombardiya va Toskana hududlari bilan hamkorlik aloqalari, xususan, tibbiyot xodimlarini tayyorlash bo‘yicha qo‘shma tashabbuslarni qo‘llab-quvvatlashini bildirdi.

Falastin bilan munosabatlar azaliy do‘stlik ruhida rivojlanmoqda. O‘zbekiston Isroil – Falastin muammosini “ikki xalq uchun ikki davlat” tamoyili asosida tinch yo‘l bilan hal etish tarafdori bo‘lib kelmoqda.

Mamlakatimizning Tinchlik kengashiga ta’sischi davlat sifatida kirishi G‘azoni qayta tiklashga ko‘maklashishga qaratilgani qayd etildi.

Saudiya Arabistoni bilan hamkorlik boshqalar uchun namuna bo‘lmoqda. Davlatimiz rahbari 25 milliard dollarlik loyihalar portfeli shakllangani, Saudiya taraqqiyot jamg‘armasi islohotlarimizga faol ko‘mak ko‘rsatayotganini alohida e’tirof qildi.

Qolaversa, tibbiyot, farmatsevtika va “yashil” energetika sohalarida katta salohiyat mavjudligi qayd etildi. Shuningdek, fuqarolarimizga Haj va Umra ziyoratlari uchun yaratilayotgan sharoitlar yuqori baholandi.

Kuvayt bilan savdo-iqtisodiyot, investitsiya, infratuzilma, sog‘liqni saqlash va ta’lim sohalarida aloqalarni yangi bosqichga ko‘tarish, Kuvayt investitsiya agentligi bilan neft-kimyo tarmog‘ida va davlat-xususiy sheriklik asosida loyihalarni amalga oshirish uchun keng imkoniyatlar borligi ta’kidlandi.

(Davomi 2-betda).

NUKUS SHAHRIDA BARQAROR VA XAVFSIZ ISSIQLIK TA’MINOTI YARATILADI

Prezident Shavkat Mirziyoyev Nukus shahridagi qozonxonani kogeneratsiya texnologiyalari asosida modernizatsiya qilish yuzasidan taqdimot bilan tanishdi.

Kuz-qish mavsumida aholi xonadonlari va ijtimoiy soha obyektlarini barqaror issiqlik bilan ta’minlash, tizimda energiya tejamkor texnologiyalarni joriy etish muhim vazifa.

Bugungi kunda Nukus shahridagi 47 ta ko‘p qavatli uy markaziy isitish tizimiga ulangan, yana 270 ta uy lokal isitish tizimidan foydalanmoqda. Qolgan ko‘p qavatli uylardagi xonadonlar turli qo‘lbola isitish vositalari orqali isitilmoqda. Bunday vositalar ko‘p energiya sarflashi bilan birga odamlar salomatligi va hayoti uchun ham jiddiy xavf tug‘diradi.

Shahardagi mavjud markaziy qozonxona 1976-yilda qurilgan bo‘lib, hozirda, asosan, ijtimoiy soha obyektlariga xizmat ko‘rsatmoqda. Uning uskunalari ma’nan va jismonan eskirgan, energiya samaradorligi esa past.

Hozirgi qozonxonada 1 gigakaloriya issiqlik ishlab chiqarish uchun qariyb 153 kub metr tabiiy gaz va 30 kilovatt-soat elektr energiyasi sarflanmoqda. Uning amaldagi quvvati soatiga atigi 1,6 gigakaloriyani tashkil etadi.

Taqdimotda ushbu qozonxonani davlat-xususiy sheriklik asosida kogeneratsiya texnologiyalari bilan modernizatsiya qilish loyihasi ko‘rib chiqildi.

Kogeneratsiya texnologiyasi bitta yoqilg‘i manbaidan bir vaqtning o‘zida elektr va issiqlik energiyasi ishlab chiqarish imkonini beradi. Bu resurslardan samarali foydalanish, ishlab chiqarish xarajatlari va atrof-muhitga chiqariladigan zararli moddalarni kamaytirishga xizmat qiladi.

Loyiha doirasida soatiga 34,4 gigakaloriya issiqlik va 21,5 megavatt elektr energiyasi ishlab chiqarish quvvatiga ega zamonaviy majmua barpo etiladi.

Shuningdek, 28 kilometr issiqlik tarmog‘i tortilib, 189 ta individual issiqlik punkti o‘rnatiladi. Ko‘p qavatli uylar va ijtimoiy obyektlarning ichki isitish tizimlari tiklanadi, zarur gaz va elektr infratuzilmasi yangilanadi.

Birinchi bosqichda 136 ta ko‘p qavatli uydagi qariyb 6 ming xonadon, ya’ni 23 ming nafar aholi hamda 40 ta ijtimoiy soha obyekti markazlashgan issiqlik ta’minoti bilan qamrab olinadi. Keyingi bosqichlarda Nukus shahridagi barcha ko‘p qavatli uylar va ijtimoiy soha obyektlarini markazlashgan issiqlik tizimiga ulash ko‘zda tutilgan.

Loyihaning dastlabki bosqichiga 20 million dollardan ziyod to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiya jalb qilinib, majmuani 2028-yil fevral oyida to‘liq ishga tushirish rejalashtirilgan.

Modernizatsiya natijasida qozonxonaning foydali ish koeffitsiyenti 80 foizdan 91 foizga oshadi. Issiqlik ishlab chiqarish hajmi bir necha o‘n barobar ko‘payib, yiliga 172 ming megavatt-soatgacha elektr energiyasi ishlab chiqarish imkoniyati yaratiladi.

(Davomi 2-betda).

Muhokama

TURIZM SOHASIDA XIZMAT SIFATI QANDAY?

Kecha Oliy Majlis Senati Kengashining majlisi bo‘lib o‘tdi. Uni Senat Raisi Tanzila Norboyeva olib bordi.

Majlisda turizm sohasini jadal rivojlantirish orqali uning iqtisodiyotdagi ahamiyatini oshirish borasida belgilangan vazifalar ijrosini o‘rganish natijalari muhokama qilindi.

So‘nggi yillarda sohada tizimli islohotlar amalga oshirildi, viza tartiblari soddalashtirilib, vizasiz rejim kengaytirildi. Shuningdek, milliy turizm brendini xalqaro maydonda targ‘ib etish, ichki turizmni rivojlantirish, yangi sayyohlik yo‘nalishlarini yaratish va xizmatlar sifatini oshirish ustuvor vazifalar sifatida belgilandi.

Turoperatorlar, turagentlar va turizm sohasida xizmat ko‘rsatuvchi boshqa tashkilotlar soni 4,4 mingni tashkil etmoqda. 6 mingga yaqin joylashtirish vositalari faoliyati yo‘lga qo‘yilgan bo‘lib, ulardagi o‘rinlar soni 185,6 mingga yetadi va 2017-yildagiga nisbatan 5 barobar ko‘paygan. 4,5 mingga yaqin gid-ekskursovodlar tayyorlangan.

2025-yilda qariyb 200 davlatdan 11,7 mln. chet el fuqarolari turistik maqsadlarda O‘zbekistonga tashrif buyurdi. Turistlar soni 2024-yildagiga nisbatan 1,6 millionga yoki 16,1 foizga oshgan. 2025-yilda xizmatlar eksporti 142 foizga o‘sib, 4,8 mlrd. dollarga yetgan. “O‘zbekiston bo‘ylab sayohat qil” ichki turizmni rivojlantirish dasturi 23,7 mln. (o‘sish 2,2 barobar) fuqaroni qamrab oldi.

2

Oliy Majlis Qonunchilik palatasida

MAMLAKAT TARAQQIYOTI, AHOLI FAROVONLIGINING MUSTAHKAM ASOSI

Oliy Majlis Qonunchilik palatasining navbatdagi majlisi bo‘lib o‘tdi. Unda mehnat munosabatlarini tartibga solish, fuqarolarning uy-joy qurilishiga jalb etilgan mablag‘larini qonun bilan himoya qilish, kapital bozori rivojlanishining huquqiy asoslarini mustahkamlash, mahalliy byudjet mablag‘laridan oqilona foydalanish imkoniyatlarini kengaytirishga doir bir qator qonun loyihalari hamda parlament nazoratiga oid masalalar ko‘rib chiqildi.

Yalpi majlis ishini Qonunchilik palatasi Spikeri N. Ismoilov mamlakatimiz ijtimoiy-siyosiy hayotidagi muhim voqealar tahlili bilan boshladi.

Jumladan, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev raisligida yoqilg‘i-energetika tarmog‘ini rivojlantirishning ustuvor vazifalariga bag‘ishlab o‘tkazilgan videoselektor yig‘ilishida belgilangan vazifalarning mazmun-mohiyatiga alohida to‘xtaldi.

Spiker o‘z so‘zida energetika sohasidagi masalalarga davlatimiz rahbarining shaxsan o‘zi e’tibor qaratayotganini alohida ta’kidladi. Chunki barqaror energiya – bu, eng avvalo, xalqimizning birlamchi ehtiyojidir. Qolaversa, u iqtisodiyot yuragi. Odamlarimizning kayfiyati, ertangi kunga ishonchi ham energiya resurslarining uzluksiz ta’minotiga bog‘liq. Aynan shuning uchun ham bu hayot-mamot masala Prezidentimizning doimiy e’tibori va nazoratida turganligiga urg‘u berdi.

3

www.xs.uz /xalqsuzi.uz @xs_uz

Xalq so‘zi
2026-yil 29-iyul

O‘ZBEKISTON PREZIDENTI YANGI TAYINLANGAN XORIJIY ELCHILARDAN ISHONCH YORLIQLARINI QABUL QILDI

(Davomi. Boshlanishi 1-betda).

Oliy darajada erishilgan kelishuvlarning to‘liq ijro etilishi xalqlarimiz manfaatlariga birdek xizmat qilishi bildirildi.

Jazoir bilan so‘nggi yillarda yuqori darajadagi muloqotlarimiz faollashgani e’tirof qilindi.

Shuningdek, neft-gaz, energetika, tog‘-kon, qishloq xo‘jaligi va turizm sohalarida o‘zaro manfaatli loyihalarni amalga oshirish uchun katta salohiyat mavjudligi ta’kidlandi. Hukumatlararo qo‘shma komissiyani ta’sis etish va Imtiyozli savdo bitimini imzolash muhimligi qayd etildi.

Malayziya bilan munosabatlarimiz so‘nggi yillarda barcha yo‘nalishda izchil rivojlanib bormoqda. Oliy va yuqori darajadagi muloqotlar faollashdi. Bozorimizga ushbu mamlakatning yetakchi kompaniyalari faol kirib kelmoqda.

O‘zbekiston yetakchisi yarimo‘tkazgichlar, neft-kimyo, islom moliyasi va ziyorat turizmi sohalarida hamkorlikni rivojlantirish uchun katta salohiyat borligiga urg‘u berdi.

Pokiston bilan strategik sheriklik munosabatlari o‘zaro hurmat va ishonch ruhida rivojlanib, yangi sifat bosqichiga ko‘tarildi.

Toshkent – Karachi yo‘nalishida to‘g‘ridan-to‘g‘ri aviaqatnovlar yo‘lga qo‘yilishi, Transafg‘on transport yo‘lagi loyihasini amalga oshirish, sanoat kooperatsiyasi, energetika, qishloq xo‘jaligi, to‘qimachilik, farmatsevtika va turizm sohalaridagi sheriklikni yanada chuqurlashtirish ustuvor vazifa ekani ta’kidlandi.

Ozarbayjon bilan munosabatlar ikki davlat yetakchilarining qat’iy siyosiy irodasi tufayli strategik sheriklik va ittifoqchilik darajasiga ko‘tarildi. Savdo hajmi 40 foizga oshib, qo‘shma korxonalar soni salkam 450 taga yetdi, yuk tashish hajmi esa ikki barobarga o‘sdi.

O‘zbekiston va Ozarbayjon o‘rtasidagi investitsiya portfelini yaqin istiqbolda 10 milliard dollarga yetkazish bo‘yicha katta marra olingani ma’lum qilindi.

Bo‘lajak oliy darajadagi uchrashuvlar ikki tomonlama hamkorlikka yangi shiddat berishi qayd etildi.

Davlatimiz rahbari Qozog‘iston elchisiga murojaat qilar ekan, mamlakatlarimiz o‘rtasidagi azaliy do‘stlik rishtalari mustahkamlanib, hozirgi vaqtda strategik sheriklik va ittifoqchilik munosabatlari kengayib borayotganini ta’kidladi.

O‘zaro savdo hajmini 10 milliard dollarga yetkazish asosiy maqsad ekani, 8 milliard dollarlik qo‘shma investitsiya loyihalari portfeli shakllantirilgani ta’kidlandi, “Markaziy Osiyo” xalqaro sanoat kooperatsiyasi markazini to‘liq ishga tushirishdan manfaatdorlik bildirildi.

Marosim yakunida davlatimiz rahbari yangi tayinlangan elchilarga sharafli va mas’uliyatli diplomatik faoliyatlariga ulkan zafarlar tiladi. O‘zaro sheriklikni mustahkamlash uchun qulay shart-sharoitlar yaratib berilishini ta’kidladi. Barcha elchilarni xususiy sektor va hududlar bilan faol ishlashga, joylardagi bunyodkorlik jarayonlari bilan yaqindan tanishishga chaqirdi.

O‘z navbatida, diplomatlar samimiy qabul va yaratilgan imkoniyatlar uchun chuqur minnatdorlik izhor etib, O‘zbekiston bilan ko‘p qirrali hamkorlikni faol ilgari surish yo‘lida bor imkoniyatlarini ishga solishlarini ta’kidladi.

NUKUS SHAHRIDA BARQAROR VA XAVFSIZ ISSIQLIK TA’MINOTI YARATILADI

(Davomi. Boshlanishi 1-betda).

Yiliga 12,2 million kub metr tabiiy gaz tejaladi, atmosferaga chiqariladigan zararli moddalar hajmi ham sezilarli qisqaradi.

Yangi majmuada 19 ta ish o‘rni yaratiladi. Soha xodimlarining zamonaviy texnologiyalardan foydalanish va uskunalarga xizmat ko‘rsatish bo‘yicha malakasi oshiriladi.

Davlatimiz rahbari loyihani amalga oshirishda, eng avvalo, aholi uchun barqaror, xavfsiz va sifatli issiqlik ta’minotini yaratish, qurilish ishlarini belgilangan muddatda va yuqori sifatda bajarish zarurligini ta’kidladi.

Loyiha ijrosini muvofiqlashtirish va barcha infratuzilma masalalarini o‘z vaqtida hal qilish bo‘yicha mas’ullarga aniq vazifalar qo‘yildi.

Shuningdek, Nukus shahridagi mazkur tajriba asosida keyinchalik Buxoro, Samarqand, Urganch va Zarafshon shaharlaridagi qozonxonalarni ham kogeneratsiya va trigeneratsiya texnologiyalari asosida modernizatsiya qilish bo‘yicha takliflar ko‘rib chiqildi.

O‘zA.

TURIZM SOHASIDA XIZMAT SIFATI QANDAY?



1

Muhokama davomida yuqori o‘sish sur’atlariga qaramasdan, sohaning iqtisodiyotdagi ulushini oshirish hamda hududlar kesimida barqaror va muvozanatli rivojlanishni ta’minlash bilan bog‘liq kamchiliklar saqlanib qolayotgani qayd etildi.

Xususan, tibbiy va sog‘lomlashtirish turizmi imkoniyatlari to‘liq ishga solinmagan. Keyingi yillarda xususiy klinikalar soni bir necha barobar oshgan bo‘lishiga qaramay, o‘tgan yilda davolanish maqsadida tashrif buyurgan xorijiy turistlar soni 2024-yildagiga nisbatan kamaygan.

Shuningdek, turistlarga ko‘rsatilayotgan xizmatlar sifati, servis madaniyati va kadrlar tayyorlash tizimidagi muammolarga ham e’tibor qaratildi.

Senatorlar sohada mavjud muammolarni bartaraf etish, turizmni iqtisodiyotning drayver tarmoqlaridan biriga aylantirish bo‘yicha aniq va manzilli chora-tadbirlar ishlab chiqish zarurligini ta’kidladi.

Xalq deputatlari mahalliy Kengashlariga sayyohlik yo‘nalishida bajarilayotgan ishlar samaradorligi ustidan qat’iy deputatlik nazoratini amalga oshirish, mas’ul rahbarlarning hisobotlarini muntazam eshitish va natijador choralar ko‘rish yuzasidan tavsiyalar berildi.

Muhokama yakunida Senat Kengashining qarori qabul qilindi. Unga asosan, mamlakatimizning turistik salohiyati bo‘yicha xorijiy bozorlarda faol targ‘ibotini yuritish, uning yangi yo‘nalishlari va huquqiy asoslarini takomillashtirish, transport, hunarmandchilik, turoperatorlar faoliyati hamda soliq ma’muriyatchiligidagi mavjud muammolarni bartaraf etish, raqamli xizmatlarni keng joriy qilish kabi vazifalar belgilandi.

Parlament diplomatiyasi

Oliy Majlis Senati Raisi Tanzila Norboyeva rahbarligida Parlamentlararo Ittifoq yosh parlament a’zolarining XII global konferensiyasini Samarqand shahrida o‘tkazish bo‘yicha tashkiliy qo‘mitaning yig‘ilishi bo‘lib o‘tdi.

TASHKILIY QO‘MITA YIG‘ILISHI

Unda shu yil 4 – 6-sentabr kunlari o‘tkazilishi rejalashtirilayotgan Parlamentlararo Ittifoq yosh parlament a’zolarining XII global konferensiyasiga tayyorgarlik ko‘rish, ushbu tadbirni yuqori saviyada tashkil etish, keng jamoatchilikka yetkazish maqsadida ishlab chiqilgan chora-tadbirlar hamda unda belgilangan vazifalar muhokama qilindi.

Aytish joizki, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Parlamentlararo Ittifoqning 2025-yil aprel oyida Toshkent shahrida bo‘lib o‘tgan 150-yubiley assambleyasidagi nutqida yoshlar masalalariga alohida to‘xtalib, navqiron avlodni milliy parlamentlar hamda Ittifoq faoliyatiga faol jalb etish zarurligini ta’kidlagan, shu masalada O‘zbekistonda konferensiya o‘tkazish taklifini ilgari surgan edi.

Oliy Majlis Senati Parlamentlararo Ittifoq bilan hamkorlikda yosh parlament a’zolarining XII global konferensiyasini shu yil 4 – 6-sentabr kunlari Samarqand shahrida o‘tkazish to‘g‘risida bitim imzoladi.

Mazkur anjumandan ko‘zlangan asosiy maqsad – parlamentlarning yosh a’zolari o‘rtasida hamkorlik aloqalarini mustahkamlash, O‘zbekistonning ochiqlik siyosatiga sodiqligini namoyon etish va parlament diplomatiyasi darajasini yuksaltirish.

Konferensiya doirasida raqamli transformatsiya sharoitida yoshlar huquqlarini himoya qilish, ularning siyosiy huquq va imkoniyatlarini kengaytirish, tadbirkorligi va bandligini qo‘llab-quvvatlash, shuningdek, xotin-qizlar va yoshlarga nisbatan zo‘ravonlikning oldini olish masalalari muhokama etiladi. Shuningdek, konferensiya tadbirlari doirasida Barqaror rivojlanish maqsadlari oyligini ham o‘tkazish ko‘zda tutilgan.

“Xalq so‘zi”.

O‘ZBEKISTON VA QOZOG‘ISTON BIRLIGI – MINTAQAMIZNING PORLOQ KELAJAGI KAFOLATI

1

O‘zbekiston aholisining katta qismini yoshlar tashkil qiladi. Vakillarimizning fijital sport musobaqasida qatnashishi mamlakatimizning yuqori texnologiyalar, raqamlashtirish va zamonaviy sport yo‘nalishlarini davlat darajasida qo‘llab-quvvatlayotganining yaqqol namoyishidir. Qolaversa, bu Markaziy Osiyoning texnologiya va yoshlar siyosati sohasida global markazga aylanayotganining ramzi ham hisoblanadi.

Prezidentimizning ushbu musobaqaning ochilish marosimida ishtirok etishi zamirida chuqur siyosiy va diplomatik maqsadlar yotadi. Bunday yirik madaniy-sport tadbirlari davlat rahbarlariga rasmiy protokollardan xoli ravishda, erkin va samimiy muhitda ikki tomonlama aloqalarni muhokama qilish imkonini beradi. Demak, Shavkat Mirziyoyev



hamda Ostonaning pozisiyalari umumiy manfaatlarga asoslangan.

Ikki davlat rahbarlarining oliy darajadagi muntazam tashriflari turli sohalardagi hamkorlikni chuqurlashtirishga doimiy intilishdan dalolat beradi. Mamlakatlar o‘rtasidagi o‘zaro hamkorlik nafaqat davlat rahbarlari darajasida, balki MDH, TDT, OHICHK, SHHT kabi ko‘p tomonlama formatlar doirasida ham amalga oshirilayotir. Hukumat delegatsiyalarining o‘zaro tashriflari tez-tez uyushtirilmoqda.

Mamlakatlarimiz hududlari o‘rtasida o‘zaro hamkorlik va to‘g‘ridan-to‘g‘ri aloqalarni kengaytirish bo‘yicha hududlarida suv sohasidagi hamkorlik, suv taqsimotini raqamlashtirish va avtomatlashtirish masalalariga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Qisqasi, O‘zbekiston va Qozog‘iston o‘rtasidagi hamkorlikni mustahkamlash mintaqada barqarorlik hamda farovonlikning muhim omilidir. Demakki, imkoniyatlarimiz bir-birini to‘ldirishini yanada kengaytirsak, iqtisodiy o‘sishning yangi nuqtalari ochiladi. Ikki qardosh mamlakat 2030-yilga borib o‘z yalpi ichki mahsulotlarini ikki barobar oshirishga intilyapti. Bu esa sanoat, qurilish va transport kabi sohalarda kuchlarni birlashtirishni talab etadi. Kooperatsion hamkorlikni kengaytirish xorijiy investitsiyalarni xomashyodan qayta ishlovchi sohalarga yo‘naltirishga yordam beradi, bu esa iqtisodiyotlarimizni global qo‘shilgan qiymat zanjirlariga integratsiyalaydi.

> ***“Markaziy Osiyodagi ikki yirik davlat rahbarlarining birgalikda global tadbirda ishtirok etishi tashqi dunyoga mintaqaning birdamligi va hamjihatligi haqida kuchli signal beradi. O‘zbekiston va Qozog‘iston o‘rtasidagi munosabatlar shunchaki qo‘shnichilik bilan chegaralanmaydi. Davlatlarimizning aloqalari Markaziy Osiyodagi xavfsizlik, iqtisodiy barqarorlik va geosiyosiy muvozanatni ta’minlovchi eng asosiy o‘qdir.”***

va Qosim-Jomart Toqayev o‘rtasida Ostonada bo‘lib o‘tadigan uchrashuv ikki davlat ittifoqchiligini yanada mustahkamlaydi, desak, mubolag‘a emas.

Markaziy Osiyodagi ikki yirik davlat rahbarlarining birgalikda global tadbirda ishtirok etishi tashqi dunyoga mintaqaning birdamligi va hamjihatligi haqida kuchli signal beradi. O‘zbekiston va Qozog‘iston o‘rtasidagi munosabatlar shunchaki qo‘shnichilik bilan chegaralanmaydi. Davlatlarimizning aloqalari Markaziy Osiyodagi xavfsizlik, iqtisodiy barqarorlik va geosiyosiy muvozanatni ta’minlovchi eng asosiy o‘qdir. Mamlakatlarimiz o‘rtasidagi munosabatlar so‘nggi yillarda sifat jihatdan eng yuqori bosqich – ittifoqchilik munosabatlari darajasiga ko‘tarildi. Mana shu omil rasmiy Toshkent va Ostona mintaqaviy va xalqaro maydonda bir-birini to‘liq qo‘llab-quvvatlashini, xavfsizlik va mudofaa masalalarida yaqin hamkorlik qilishini, ikki davlat o‘rtasida hech qanday chegaraviy yoki siyosiy kelishmovchiliklar qolmaganini ko‘rsatadi.

Qozog‘iston – O‘zbekistonning eng yirik tashqi savdo hamkorlaridan biri. Ikki tomonlama tovar aylanmasi izchil o‘sib bormoqda va yaqin yillarda uni 5 mlrd. dollardan 10 mlrd. dollargacha yetkazish rejalashtirilgan. Birgalikda qator qo‘shma loyihalar amalga oshirilyapti. Mashinasozlik (avtomobillarni yig‘ish korxonalari), qurilish, farmatsevtika va qishloq xo‘jaligi sohalarida yirik investitsiyaviy loyihalar amalga oshirilmoqda. Chegara hududida “Markaziy Osiyo” xalqaro sanoat kooperatsiyasi markazi tashkil etilmoqda, bu esa bojsiz savdo va ishlab chiqarishni yangi bosqichga olib chiqadi.

Markaziy Osiyoning dengiz yo‘llaridan uzoqligini hisobga olsak, O‘zbekiston va Qozog‘iston transport infratuzilmasini birlashtirish eng muhim vazifadir. Ikki qo‘shni davlat Xitoy, Rossiya va Yevropa yo‘nalishlariga chiquvchi temir yo‘l va avtomobil yo‘laklarini birgalikda rivojlantirmoqda. Trans-Kaspiy yo‘lagi va boshqa muqobil logistika yo‘nalishlarida rasmiy Toshkent kelishuvlarga erishilganini alohida ta’kidlash joiz. Hududlararo hamkorlik forumlari muntazam ravishda o‘tkazib kelinayotir. Siyosiy muloqotlar, o‘z navbatida, iqtisodiyotlar bir-birini to‘ldirishiga zamin yaratmoqda, natijada sanoat va texnologik rivojlanishning umumiy makonini shakllantirish g‘oyalarini amalga oshirish zarurati yuzaga kelayotir. Bu nafaqat raqobatdosh ustunlik, yangi ish o‘rinlari va texnologik salohiyat yaratish, balki uchinchi davlatlar bozoriga birgalikda kirishga imkon beradi. Buning uchun bizda barcha sharoit mavjud: chorvachilik sohasida juda ko‘p istiqbolli loyihalar, paxta yetishtirish va qayta ishlash, issiqxona qurish, avtomobil, maishiy texnika ishlab chiqarish ana shular jumlasidan.

Bu omillar birgalikda iqtisodiy rivojlanishni ta’minlaydi. Bundan tashqari, qo‘shma loyihalarni amalga oshirish, davlat-xususiy sheriklik munosabatini yo‘lga qo‘yishda kichik va o‘rta biznesni faol jalb etish muhim. Tovar, xizmat, ishchi kuchi va kapital harakati uchun to‘siqsiz muhit yaratish ham dolzarb masalalardan. Buning foydasi aniq: iste’mol narxi pasayadi, ta’minot zanjiri qisqa masofaga ko‘chadi, bu bizni jahon bozoridagi tebranishlardan himoya qiladi.

Ikki davlat chegara hududlarini rivojlantirish ham ustuvor vazifalardan. Masalan, “Markaziy Osiyo” xalqaro sanoat kooperatsiyasi markazi loyihasi Qozog‘istonning Turkiston viloyati va O‘zbekistonning Sirdaryo viloyati hududlarida qo‘shma mahsulot ishlab chiqarish uchun sharoit yaratishga yordam beradi. Ikki mamlakat

Prezident Shavkat Mirziyoyevning 29-iyul kuni Ostona shahriga amaliy tashrifi va “Kelajak o‘yinlari” ochilish marosimida ishtirok etishi O‘zbekiston hamda Qozog‘iston o‘rtasidagi ittifoqchilik rishtalari naqadar chuqur va ko‘p qirrali ekanini yana bir bor namoyish qiladi. Sport va raqamli texnologiyalar bayrami fonida kechadigan oliy darajadagi siyosiy muloqotlar Markaziy Osiyoda tinchlik, iqtisodiy taraqqiyot va mintaqaviy integratsiyani yangi bosqichga olib chiqishga xizmat qiladi. Natijada O‘zbekiston va Qozog‘iston birligi butun mintaqaning porloq kelajagi kafolatiga aylanadi.

Bahodir XOLIQOV,
Samarqand davlat chet tillar instituti rektori,
filologiya fanlari doktori, professor.

ENERGETIKA TIZIMI – “YASHIL” RIVOJLANISH SARI

Prezidentimiz raisligida yoqilg‘i-energetika tarmog‘ining bugungi holati, mavjud muammolar va istiqboldagi ustuvor vazifalarga bag‘ishlab o‘tkazilgan videoselektor yig‘ilishida muhim strategik yo‘nalishlar belgilab berildi.

Munosabat

Ma’lumki, energetika sohasi – mamlakatimiz iqtisodiyotining barqarorligi, sanoat va tadbirkorlik rivoji, aholi farovonligi bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan tarmoqlardan biri. Shu bois amalga oshirilayotgan islohotlarning bosh maqsadi nafaqat yangi quvvatlarni yaratish, balki mavjud tizimni zamonaviy boshqaruv tamoyillari asosida takomillashtirish, energiya resurslaridan samarali foydalanish va iste’molchilarga sifatli xizmat ko‘rsatishni ta’minlashdan iborat.

Yig‘ilishda ta’kidlanganidek, so‘nggi yillarda energetika yo‘nalishida keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirildi. Sohaga katta hajmdagi investitsiyalar jalb qilindi, yangi elektr ishlab chiqarish quvvatlari ishga tushirildi, elektr va gaz tarmoqlarini modernizatsiya qilish, podstansiyalar, transformatorlar hamda taqsimlash inshootlarini yangilash bo‘yicha salmoqli ishlar bajarildi. Xususan, energetika tizimida xususiy sektor va xorijiy investorlar ishtirokini kengaytirish, ilg‘or xorijiy tajribalarni joriy etish uchun zarur huquqiy va tashkiliy sharoitlar yaratildi.

Davlatimiz rahbari tizimdagi mavjud kamchiliklarni chuqur tahlil qilib, muammolarning asosiy sabablarini ham ko‘rsatib berdi. Bunda energetika sohasidagi asosiy masala mablag‘ yetishmovchiligi bilan emas, balki boshqaruv sifati, ijro intizomi, rahbarlarning mas’uliyati va natijadorlikka yondashuvi bilan bog‘liq. Bu esa barchamizdan yangicha fikrlash, aniq hisob-kitob asosida ishlash, aholi va tadbirkorlar manfaatini birinchi o‘ringa qo‘yishni talab etadi.



Bugungi sharoitda hududlarning rivojlanish sur’atlari, aholi soni ortib, iqtisodiy faollikning jadallashib borishi energetika infratuzilmasiga talabni keskin oshirmoqda. Shu sababli, elektr va gaz tarmoqlarini oldindan rejalashtirish, energiya iste’moli balansini shakllantirish, mavjud quvvatlardan oqilona foydalanish va kelgusidagi ehtiyojlarni hisobga olgan holda yangi loyihalar ijrosini ta’minlash ustuvor vazifa sanaladi. Prezidentimiz ta’kidlaganidek, aholi va tadbirkorlarga uzluksiz hamda sifatli elektr va gaz yetkazib berish, energetika infratuzilmasini hududlarning rivojlanish sur’atlariga mos ravishda modernizatsiya qilish, energiya samaradorligini oshirish va tizimdagi yo‘qotishlarni kamaytirish barcha mas’ullar faoliyatining asosiy mezoniga aylanishi lozim.

Mazkur vazifalar hududlarda, jumladan, Xorazm viloyatida ham izchil amalga oshirilmoqda. Viloyatda energetika sohasini rivojlantirish, qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan samarali foydalanish, energiya barqarorligini ta’minlash bo‘yicha qator yirik loyihalar hayotga tatbiq etilyapti. Xususan, Fransiyaning “Voltalia” kompaniyasi bilan hamkorlikda Xorazm viloyatida 100 megavatt quvvatga ega quyosh elektr stansiyasi barpo qilinmoqda. Ushbu loyiha hududda elektr energiyasi ishlab chiqarish imkoniyatlarini kengaytirish, qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish ulushini oshirish hamda iqtisodiyotning “yashil” rivojlanish tamoyillarini mustahkamlashga hissa qo‘shadi.

Mazkur loyiha nafaqat qo‘shimcha energiya manbaini yaratish, balki zamonaviy texnologiyalarni hududga olib kirish, xalqaro tajribani o‘zlashtirish va yangi ish o‘rinlarini yaratish nuqtayi nazaridan ham ahamiyatli. Qayta tiklanuvchi energiya sohasining rivojlanishi kelgusida energetik xavfsizlikni mustahkamlash, tabiiy resurslardan samarali foydalanish va ekologik barqarorlikni ta’minlashda muhim omil bo‘lishi, shubhasiz.

Prezidentimiz yig‘ilishda alohida e’tibor qaratgan zamonaviy kadrlar tayyorlash masalasi bo‘yicha ham Xorazm viloyatida e’tiborga molik ishlar olib borilmoqda. Xususan, shu maqsadda “Voltalia” kompaniyasi bilan hamkorlikda oliy ta’lim muassasalari talabalari uchun qayta tiklanuvchi energetika yo‘nalishida zamonaviy o‘quv dasturlarini ishlab chiqish, bakalavr va magistratura bosqichlarida tahsil olayotgan yoshlarni amaliy loyihalarga jalb etish, xalqaro tajriba asosida malakali mutaxassislar tayyorlash bo‘yicha ishlar yo‘lga qo‘yilgan. Bu hamkorlik ta’lim, ilm-fan va ishlab chiqarish integratsiyasini kuchaytirib, yosh mutaxassislarimizning nafaqat nazariy bilimlarga, balki amaliy ko‘nikmalarga ega bo‘lib, kelgusida energetika sohasidagi yirik loyihalarda faol ishtirok etish imkoniyatini oshiradi.

Barcha yo‘nalishlarda bo‘lgani kabi energetika tizimini raqamlashtirish, boshqaruv jarayonlarida sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish ham ustuvor vazifa sifatida belgilanmoqda. Bu energiya ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash jarayonlarini yanada samarali boshqarish, yo‘qotishlarni kamaytirish, avariyalarni oldindan aniqlash hamda xizmat sifatini yaxshilash imkoniyatini yaratadi.

Prezidentimiz sohani modernizatsiya qilish, qayta tiklanuvchi energiya manbalarini keng joriy etish, zamonaviy bilim va ko‘nikmalarga ega mutaxassislar tayyorlash hamda energetika tizimi samaradorligini oshirish yo‘nalishidagi ishlarni izchil davom ettirishni kun tartibidagi dolzarb vazifa sifatida belgiladi. Ishonchimiz komilki, olib borilayotgan keng ko‘lamli islohotlar natijasida mamlakatimiz energetika tizimi yanada barqaror, samarali va zamonaviy ko‘rinishga ega bo‘ladi. Bu esa, o‘z navbatida, aholi farovonligini yuksaltirish, tadbirkorlik subyektlari faoliyati uchun qulay shart-sharoit yaratish hamda iqtisodiyotimizning uzoq muddatli rivojlanishini ta’minlashga xizmat qiladi.

Bahrom ABDULLAYEV,
Oliy Majlis Senatining Mudofaa va xavfsizlik masalalari qo‘mitasi raisi o‘rinbosari.

Yangi Toshkentda barpo etilayotgan O‘zbekiston Milliy kutubxonasining umumiy maydoni 30 ming kvadrat metrdan ortiq bo‘lib, to‘rt qavatli ushbu bino bir vaqtning o‘zida 1 420 nafar kitobxonga xizmat ko‘rsatadi.

MAMLAKAT TARAQQIYOTI, AHOLI FAROVONLIGINING MUSTAHKAM ASOSI

2024-yildagi “Elektr energetikasi to‘g‘risida”gi Qonun bilan bu sohadagi munosabatlar zamonaviy bozor tamoyillari asosida tartibga solindi, tarmoqda raqobat muhitini bosqichma-bosqich shakllantirish nazarda tutildi, xususiy investorlar ishtirokini kengaytirish uchun huquqiy kafolatlar yaratildi.

“Energiyani tejash, undan oqilona foydalanish va energiya samaradorligini oshirish to‘g‘risida”gi Qonun bilan energiyani tejash davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishi sifatida belgilandi. So‘nggi yillarda qabul qilingan mazkur qonunlar O‘zbekistonda elektr energetikasi sohasini isloh etishning yaxlit huquqiy tizimini shakllantirgani aytildi.

Tarmoqqa yetarlicha xorijiy investitsiyalar olib kirilgani, joylarda umumiy quvvati 9,5 gigavattga teng bo‘lgan elektr stansiyalari ishga tushirilgani, elektr va gaz tarmoqlari, podstansiya, transformatorlar, gaz taqsimlash qurilmalarini yangilashga 30 trln. so‘m yo‘naltirilgan bo‘lsa-da, Energetika vazirligi va uning bo‘g‘inlari bunday imkoniyatlardan unumli foydalana olmayotgani, tizimni boshqarishda tartib-intizom va nazorat yo‘qligi qattiq tanqidga olindi. Elektr tarmoqlaridagi sodir bo‘layotgan avariyalar, energiya ta’minotidagi yo‘qotishlar, elektr va gaz hisoblagichlarning markazlashgan tizimga ma’lumot uzatmayotganligi, debitor qarzdorlik mavjudligi haqida Prezidentimiz asosli ravishda to‘xtalib o‘tgani alohida ta’kidlandi.

Spiker qayd etganidek, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev sohada kelgusida amalga oshiriladigan vazifalar to‘g‘risida alohida to‘xtaldi. Jumladan, elektr va gaz ta’minoti bilan bog‘liq ishlarni tumanbay va mahallabay tashkil etish, har bir hududning energiya iste’moli balansini shakllantirish, avariyalarni kamaytirish, barcha hisoblagichlarni yagona tizimga ulash, yo‘qotish va qarzdorlikni kamaytirish bo‘yicha manzilli dasturlar ishlab chiqish vazifalari belgilandi.

Ularni amalga oshirishda Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputatlari ham bugundan e’tiboran saylov okruglariga chiqib, aholi bilan uchrashib, mahallalarda, xonadonlarda, ijtimoiy-iqtisodiy obyektlarda bo‘ladi, davlatimiz rahbari tomonidan belgilangan vazifalar samarali bajarilishini ta’minlashda faol qatnashadi.

Intellektual mulk himoyasida qanday ishlar amalga oshirilyapti?

Majlisda O‘zbekiston Respublikasi adliya vaziri Akbar Toshqulovning “Fuqarolarning va tadbirkorlik subyektlarining intellektual mulk sohasidagi huquqlarini himoya qilish borasida amalga oshirilayotgan ishlar to‘g‘risida”gi axboroti eshitildi.

Ta’kidlanganidek, keyingi yillarda mamlakatimiz intellektual mulkni huquqiy muhofaza qilish, milliy qonunchilikni xalqaro standartlarga muvofiqlashtirish, innovatsion faoliyatni rag‘batlantirish hamda milliy brendlarni qo‘llab-quvvatlash borasida izchil islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, O‘zbekiston intellektual mulk sohasidagi 19 ta xalqaro shartnomaga qo‘shildi, milliy qonunchilik Jahon savdo tashkilotining “TRIPS” bitimi talablariga uyg‘unlashtirildi. Buning natijasida Global innovatsion indeksda O‘zbekistonning o‘rni 2020-yildagi 93-o‘rindan 2025-yilda 79-o‘ringa ko‘tarildi.

Intellektual mulk obyektlari hamda ularning tovar belgisiga bo‘lgan huquqlar muhofazasini kuchaytirish, intellektual mulk obyektlari huquqiy himoya tizimini yanada takomillashtirish, mualliflik va turdosh huquqlarni, shuningdek, sanoat mulki obyektlariga bo‘lgan huquqlarni buzganlik uchun javobgarlikni qat’iylashtirishga qaratilgan qator qonunlar qabul qilingan.

Majlisda adliya organlariga kontrafakt mahsulotlarni aniqlash bo‘yicha nazorat xaridlarini mustaqil tashkil etish, huquqni muhofaza qiluvchi organlar bilan hamkorlikda yashirin ishlab chiqarish holatlarini fosh etish vakolatlari berilgani aytildi.

Shu bilan birga, deputatlar sohada yechimini kutayotgan qator tizimli masalalarga e’tibor qaratdi. Jumladan, aholida intellektual mulkka hurmat munosabatini yanada kuchaytirish, kontrafakt mahsulotlarga qarshi murosasiz munosabatni shakllantirish, huquq egalari manfaatlarini samarali himoya qilish zarurligi ta’kidlandi.

Bundan tashqari, deputatlar tomonidan intellektual mulk himoyasining huquqiy asoslarini yanada kuchaytirish hamda bu borada adliya organlarining rolini oshirish yuzasidan qator takliflar bildirildi.

Xususan, intellektual mulk huquqi bilan bog‘liq ma’muriy huquqbuzarliklar to‘g‘risidagi ishlarni yuritishda yarashuv va xususiy ayblov institutlarini joriy etish, adliya organlarining intellektual mulkni himoya qilishga doir faoliyatiga to‘sqinlik uchun javobgarlikni belgilash, o‘zganing tovar belgisidan qonunga xilof ravishda foydalanish, mualliflik va turdosh huquqlarni buzishga oid ma’muriy huquqbuzarliklarni ko‘rib chiqishda adliya organlarining ishtirokini ta’minlash kabi masalalarni atroflicha o‘rganish va ularni qonunchilikda aks ettirish muhimligi ta’kidlandi. Shuningdek, tovar belgilarini davlat ro‘yxatidan o‘tkazish jarayonini soddalashtirish, intellektual mulk obyektlarini kredit ta’minoti sifatida garovga qo‘yishning huquqiy mexanizmlarini shakllantirish, intellektual mulk huquqini muntazam buzuvchi shaxslarning davlat xaridlarida ishtirokini cheklash kabi yo‘nalishlarda qonunchilikni takomillashtirish zarurligi qayd etildi.

Bo‘lib o‘tgan muhokamalarda siyosiy partiyalar fraksiyalari a’zolari, xususan, deputatlar – Umida Rahmonova, Tohir Polvonov, Oydin Abdullayeva, Muqaddas Ahmedova, Qizilgul Qosimova, Gulchehra Tojiboyeva sohadagi mavjud muammolar, amalga oshirilayotgan islohotlar samaradorligi hamda kelgusidagi ustuvor vazifalarga oid savollarni o‘rtaga tashlab, tegishli taklif va mulohazalarini bildirdi.

Sohada qonunchilikni yanada takomillashtirish, raqamli texnologiyalar, sun’iy intellekt asosida davlat xizmatlarini soddalashtirish, intellektual mulk sohasida idoralararo hujjatlar almashinuvini to‘liq elektron shaklga o‘tkazish, huquqbuzarliklarning oldini olish, huquq egalari manfaatlarini samarali himoya qilish yuzasidan qator taklif va tavsiyalar ilgari surildi.

Majlisda Qonunchilik palatasi tomonidan tegishli qaror qabul qilinib, Adliya vazirligi oldiga raqamli xizmatlarni kengaytirish, intellektual mulk obyektlarining iqtisodiy aylanmasini oshirish bo‘yicha huquqiy mexanizmlarni takomillashtirish, huquqbuzarliklarning oldini olish yuzasidan qo‘shimcha choralar ko‘rish vazifalari qo‘yildi.

Mehnat munosabatlarini tartibga solish zarur

Navbatdagi masala – “O‘zbekiston Respublikasining Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksiga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish haqida”gi qonun loyihasi ikkinchi o‘qishda ko‘rib chiqildi.

Ta’kidlanganidek, mamlakatimizda chet el fuqarolariga viza berish va ularni ro‘yxatga olish tartibining soddalashtirilishi, turizm sohasini rivojlantirish uchun imtiyoz va preferensiyalar berilishi natijasida respublikamizga kirib kelayotgan chet el fuqarolari va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslarning soni ortib bormoqda.

Biroq ayrim chet el fuqarolari va doimiy ravishda boshqa davlatlar hududida yashayotgan fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar tomonidan o‘ziga berilgan



imtiyozlardan to‘g‘ri foydalanmasdan, respublikamizda mehnat faoliyatini amalga oshirish huquqini beruvchi tasdiqnoma olmagan holda mehnat faoliyati bilan shug‘ullanish holatlari kuzatilmoqda.

Qonun loyihasi bilan O‘zbekiston Respublikasining Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksiga o‘zgartirish kiritilmoqda. Ya’ni respublikamiz hududida bo‘lib turgan chet el fuqarolari va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar tomonidan mehnat faoliyatini amalga oshirish huquqini beruvchi tasdiqnoma olmagan holda mehnat faoliyati bilan shug‘ullanganlik uchun javobgarlik belgilanmoqda. Ushbu turdagi ma’muriy huquqbuzarliklar haqidagi ishlarni ko‘rib chiqish vakolatini Davlat mehnat inspeksiyasi, ichki ishlar organlari va jinoyat ishlari bo‘yicha sudlarga berilishi bo‘yicha normalar kiritilmoqda.

Majlisda qonun loyihasi qabul qilindi va Senatga yuborildi.

Ortiqcha byurokratik to‘siqlarga o‘rin yo‘q

“Fuqarolar va yuridik shaxslarning huquqlari Konstitutsiyaviy sud tomonidan himoya qilinishining takomillashtirilishi munosabati bilan ayrim qonun hujjatlariga qo‘shimcha va o‘zgartirishlar kiritish to‘g‘risida”gi qonun loyihasi birinchi o‘qishda ko‘rib chiqildi.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiya bilan fuqarolar va yuridik shaxslarning muayyan ishda o‘zlariga nisbatan qo‘llanilgan qonunning Konstitutsiyaga muvofiqligi yuzasidan Konstitutsiyaviy sudga murojaat etish huquqi kafolatlandi. Shuningdek, sudlar tashabbusi bilan Oliy sud orqali Konstitutsiyaviy sudga murojaat qilishning huquqiy asoslari mustahkamlandi.

Qonun loyihasiga ko‘ra, sudlar tashabbusi bilan Oliy sud tomonidan muayyan ishda qo‘llanilishi lozim bo‘lgan qonunning Konstitutsiyaga muvofiqligi masalasi yuzasidan Konstitutsiyaviy sudga murojaat kiritilganda tegishli ish yurituvini to‘xtatish belgilanmoqda.

Shuningdek, Konstitutsiyaviy sud muayyan ishda qo‘llanilgan qonunni Konstitutsiyaga muvofiq emas, deb topgan taqdirda sud hujjatlarini qayta ko‘rib chiqishning mustaqil protsessual asosini belgilash nazarda tutilmoqda. Konstitutsiyaviy sud qarorlari asosida sud ishlarini qayta ko‘rish va ish yuritishni qaytadan boshlash tartibi aniq belgilanmoqda.

Deputatlarning ta’kidlashicha, qonun loyihasining qabul qilinishi sud amaliyotida huquqiy aniqlikni ta’minlaydi, buzilgan konstitutsiyaviy huquq va erkinliklarni tiklash imkoniyatlarini kengaytiradi, ortiqcha byurokratik to‘siqlarni bartaraf etadi.

Qonun loyihasi deputatlar tomonidan birinchi o‘qishda qabul qilindi.

Fuqarolarning uy-joy qurilishiga jalb etilgan mablag‘lari qonun himoyasida

Majlisda “Ko‘p kvartirali uylarni va boshqa ko‘chmas mulk obyektlarini ulush kiritish asosida qurish to‘g‘risida”gi qonun loyihasi birinchi o‘qishda ko‘rib chiqildi.

Keyingi yillarda mamlakatimizda bunyodkorlik ko‘lami kengaydi. Ko‘p qavatli uylar qurilib, aholining eng muhim talabi qondirilmoqda. Ayniqsa, mazkur jarayonda qurilish sifati va xavfsizligini ta’minlash, sohaga zamonaviy texnologiyalarni joriy etish va raqamlashtirishga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Qonun loyihasi bilan ko‘p kvartirali uylar va boshqa ko‘chmas mulk obyektlarini ulush kiritish asosida qurish bo‘yicha munosabatlar tartibga solinmoqda. Unda ulushli qurilish munosabatlari ishtirokchilarining, davlat organlarining huquq va majburiyatlari, vakolatlari, o‘zaro munosabatlariga oid qoidalar aniq belgilanmoqda.

Xususan, ko‘p kvartirali uylar va boshqa ko‘chmas mulk obyektlarining ulush kiritish asosida qurilishiga jismoniy va yuridik shaxslarning pul mablag‘larini jalb qilishga oid muhim qoidalar nazarda tutilmoqda.

Fuqarolarning ulushli qurilishga kiritgan mablag‘larining kafolatli himoya mexanizmlari belgilanmoqda. Jumladan, fuqarolarning pul mablag‘lari to‘g‘ridan-to‘g‘ri quruvchi ixtiyorida emas, balki banklarda ochiladigan eskrou hisobvarag‘i orqali saqlanadi. Qurilish belgilangan talablar asosida amalga oshirilib, obyekt foydalanishga topshirilganidan keyin mablag‘lar quruvchiga o‘tkaziladi.

Shuningdek, quruvchi (developer) faqat qonunda belgilangan talablarga javob bergan, Yagona axborot tizimida ro‘yxatdan o‘tgan, vakolatli bank bilan bosh bitim tuzgan va loyiha deklaratsiyasini e’lon qilgan taqdirdagina aholi mablag‘larini jalb etish huquqiga ega bo‘lish taklifi ilgari surilmoqda. Bundan tashqari, ulushli ishtirok bo‘yicha shartnoma notarial tasdiqlanadi hamda belgilangan tartibda davlat ro‘yxatidan o‘tkaziladi. Bu bir obyektning takroran sotilishi, noqonuniy shartnomalar tuzilishi kabi holatlarning oldini oladi.

Quruvchi qonun talablariga zid ravishda fuqarolar mablag‘larini jalb etgan taqdirda, ulushdor ushbu mablag‘larni qaytarishni va ulardan foydalanilganlik uchun foiz to‘lanishini talab qilish huquqiga ega bo‘ladi. Agar talab belgilangan muddatda bajarilmasa, fuqaro sudga murojaat etishi mumkinligi nazarda tutilmoqda. Shuningdek, qonun loyihasida qurilish loyihalarini o‘z vaqtida yakuniga yetkazishga qaratilgan ta’sirchan mexanizmlar belgilanmoqda. Jumladan, zarur hollarda vakolatli bankni yoki quruvchini almashtirish, qurilishning uzluksiz moliyalashtirilishini ta’minlashga qaratilgan moliyaviy mexanizmlar yaratilmoqda. Bu esa qurilish to‘xtab qolishining oldini olish va ulushdorlarning manfaatlari ishonchli himoyasiga xizmat qiladi.

Loyihaga ko‘ra, ulushli qurilishga oid ma’lumotlarning Yagona axborot tizimida joylashtirilishi ta’minlanadi. Bu fuqarolarga quruvchi, qurilish obyekti va loyihaning amalga oshirilishi haqidagi muhim ma’lumotlar bilan ochiq tanishish imkonini ta’minlaydi.

Qonun loyihasi deputatlar tomonidan qizg‘in muhokama qilindi va loyihaning konsepsiyasi hamda normalarini takomillashtirish bo‘yicha asoslantirilgan takliflar berildi.

Xususan, “Adolat” SDP fraksiyasi a’zosi Zuhriddin Mavlonov eskrou hisobvarag‘idagi mablag‘lar quruvchidan jabrlangan buyurtmachilarga qaytarilgan taqdirda inflyatsiya darajasi hisobga olinishi bilan bog‘liq masala qonun loyihasida aks ettirilmaganini tanqid ostiga oldi. Bundan tashqari, O‘zLiDeP fraksiyasi a’zosi Saydullo Azimov ham Z. Mavlonov ko‘targan masalani qo‘llab-quvvatlashini ma’lum qilar ekan, mutanosib bo‘lmagan huquqbuzarliklarni bir moddaga kiritish amaliyotidan voz kechish zarurligini aytdi.

U Jinoyat kodeksi 188^2-moddasining birinchi qismida mulk obyektlari qurilishiga qonunda belgilanmagan usulda mablag‘larni jalb qilganlik uchun hamda ulushli ishtirok etish shartnomasini davlat reestrida ro‘yxatdan o‘tkazmaganlik uchun bir xil jazo chorasi qo‘llanilishi belgilanayotgani qonunchilik texnikasiga to‘g‘ri kelmasligiga oid fikrini bayon qildi.

Qizg‘in muhokama davomida muayyan huquqbuzarlik keskin jazo choralari belgilanishidan oldin amaldagi javobgarlik choralarini samarali qo‘llash masalasini o‘ylab ko‘rish zarurligi qayd etildi.

Majlisda qonun loyihasini deputatlar tomonidan bildirilgan takliflar asosida qayta ko‘rib chiqish, undagi huquqiy mexanizmlarni yanada takomillashtirish hamda ikkinchi o‘qishga sifat jihatdan puxta tayyorlash uchun mas’ul qo‘mitaga tegishli vazifalar belgilab berildi.

Muhokamadan so‘ng qonun loyihasi birinchi o‘qishda qabul qilindi.

Kapital bozori rivojlanishining huquqiy asoslari mustahkamlanmoqda

Deputatlar “Kapital bozori to‘g‘risida”gi qonun loyihasini birinchi o‘qishda ko‘rib chiqdi.

Ta’kidlanganidek, qonun loyihasining maqsadi – mamlakatimizda kapital bozorini xalqaro standartlar asosida rivojlantirish va zamonaviy moliyaviy vositalardan foydalanish imkoniyatlarini yaratishdan iborat. Shu maqsadda qonun loyihasi bilan aholi va investorlar uchun yangi moliyaviy vositalar, xususan, sukuk – islom obligatsiyalari, barqaror rivojlanish obligatsiyalari, qoplangan va sekyuritizatsiyalangan obligatsiyalar muomalaga kiritiladi. Shuningdek, investorlar va fuqarolarning huquqlarini ishonchli himoya qilish tizimi kuchaytiriladi hamda bozor infratuzilmasi faoliyati tartibga solinib, kapital bozorining investitsiyaviy jozibadorligi oshiriladi.

Muhokama davomida deputatlar qonun loyihasining bir qancha muhim jihatlariga alohida e’tibor qaratdi.

Jumladan, “Milliy tiklanish” DP fraksiyasi a’zosi Nodir Tilavoldiyev mazkur qonun davlat, biznes va investorlar manfaatlarining o‘zaro mutanosibligini ta’minlash, kapital bozori infratuzilmasini zamonaviy talablar asosida rivojlantirish hamda aholining investitsiya jarayonlaridagi ishtirokini kengaytirishga xizmat qiladigan muhim huquqiy hujjat ekanini ta’kidladi.

Shu bilan birga, deputat qonun loyihasida ushbu sohani tartibga soladigan vakolatli organ nomini havolaki normada belgilamasdan aniq ko‘rsatish zarurligini qayd etdi.

O‘zLiDeP fraksiyasi a’zosi Saydullo Azimov ham loyihani ikkinchi o‘qishga tayyorlash jarayonida qimmatli qog‘ozlar bozorida hiyla-nayrang ishlatish yoki insayder axborotidan foydalanganlik uchun taklif etilayotgan jazo choralarini qayta ko‘rib chiqish zarurligini ta’kidladi.

Xususan, loyihada investorlarni jalb qilish, korporativ boshqaruv sifatini oshirish va kompaniyalar tomonidan axborotlar ochiqligi bo‘yicha talablarni kuchaytirish nazarda tutilganiga alohida e’tibor qaratildi. Shuningdek, bozor nazorati organi (regulyator) vakolatlarini Qimmatli qog‘ozlar komissiyalari bo‘yicha xalqaro tashkilot (IOSCO) tamoyillariga muvofiqlashtirish hamda Markaziy depozitariy, reyting agentliklari faoliyatini takomillashtirish zarurligi ta’kidlandi.

Majlisda qayd etilganidek, qonun loyihasining qabul qilinishi va amaliyotga tatbiq etilishi natijasida moliyaviy resurslardan foydalanish imkoniyatlari yanada kengayadi, zamonaviy va jozibador investitsiya vositalari paydo bo‘ladi. Bundan tashqari, investorlarning huquq va qonuniy manfaatlari ishonchli himoya qilinib, yanada qulay va shaffof muhit yaratiladi. Eng muhimi, mamlakat iqtisodiyotiga ham mahalliy, ham xorijiy investitsiyalarni keng jalb etish imkoniyati oshadi, kapital bozori raqobatbardosh bo‘ladi.

Qonun loyihasi deputatlar tomonidan birinchi o‘qishda qabul qilindi.

Davlat tuzilmalari xodimlarining formali kiyim-boshidan noqonuniy foydalanish holatlarining oldi olinadi

Majlisda “O‘zbekiston Respublikasining Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksiga davlat tuzilmalari xodimlarining formali kiyim-boshidan qonunga xilof ravishda foydalanish holatlarining oldini olishga qaratilgan o‘zgartirish va qo‘shimcha kiritish haqida”gi qonun loyihasi birinchi o‘qishda ko‘rib chiqildi.

Davlat organlari, vazirlik va idoralar xodimlari uchun joriy etilgan formali kiyim-bosh muayyan davlat organi vakili ekanligini anglatadi, fuqarolarda ishonch uyg‘otadi hamda uni kiyib yurgan shaxsga qonun bilan belgilangan vakolat va mas’uliyat yuklanganini bildiradi. Bunday formali kiyim-bosh davlat xizmatining muhim timsollaridan biri hisoblanadi.

Afsuski, keyingi yillarda ayrim tashkilotlar, idoralar, hatto ayrim fuqarolar tomonidan belgilangan tartibda tasdiqlangan formali kiyim-boshga adashtirib yuborish darajasida o‘xshash kiyim-boshlardan foydalanish yoki ayrim tashkilotlar tomonidan o‘z xodimlari uchun shunday kiyim-boshlarni joriy etish holatlari kuzatilmoqda. Bu esa fuqarolarni chalg‘itishi, davlat organlari obro‘siga salbiy ta’sir ko‘rsatishi hamda ayrim shaxslarga o‘zini davlat organi xodimi sifatida ko‘rsatib, odamlar ishonchini suiiste’mol qilish imkoniyatini yaratishi mumkin. Natijada haqiqiy davlat xizmatchisini boshqa shaxsdan ajratish qiyinlashadi.

Shu munosabat bilan qonun loyihasi orqali O‘zbekiston Respublikasining Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksida davlat organlarining tasdiqlangan harbiy yoki idoraviy formali kiyim-boshga adashtirib yuborish darajasida o‘xshash hamda unga xos farqlovchi belgilar va (yoki) ramzlarga ega formali kiyim-boshni joriy etganlik yoki undan foydalanganlik uchun ma’muriy javobgarlik belgilash taklif qilinmoqda.

Belgilanayotgan normalar, avvalo, fuqarolarning huquqlari va manfaatlari muhofazasiga, davlat organlariga ishonchni mustahkamlashga, davlat xizmati obro‘sini himoya qilishga hamda formali kiyim-boshlardan noqonuniy, g‘arazli maqsadlarda foydalanishning oldini olishga qaratilgan.

Muhokama chog‘ida deputatlar qonun loyihasining mazmun-mohiyati, huquqni qo‘llash amaliyotiga ta’siri va taklif etilayotgan huquqiy mexanizmlar yuzasidan o‘z fikr-mulohazalarini bildirdi. Shuningdek, ayrim normalarni yanada takomillashtirish bo‘yicha takliflar ilgari surildi.



Majlisda qonun loyihasi deputatlar tomonidan birinchi o‘qishda qabul qilindi.

Mahalliy byudjet mablag‘laridan oqilona foydalanish imkoniyatlari kengaytirilmoqda

Mahalliy byudjetlarni boshqarishda tezkorlikni ta’minlash hamda byudjet jarayonining samaradorligini oshirishga qaratilgan qonun loyihasi birinchi o‘qishda ko‘rib chiqildi.

Mamlakatimizda hududlarning moliyaviy mustaqilligini kengaytirish, mahalliy byudjetlarni boshqarish samaradorligini oshirish borasida izchil islohotlar olib borilmoqda. Bu esa, o‘z navbatida, byudjet mablag‘laridan samarali va maqsadli foydalanish imkonini bermoqda.

Muhokamada deputatlar bugungi kunda mahalliy byudjetlarning birinchi va ikkinchi guruh xarajatlari, shuningdek, oziq-ovqat mahsulotlari va dori-darmon vositalarini sotib olish uchun ajratilgan mablag‘larni ko‘paytirish yoki kamaytirishni nazarda tutuvchi o‘zgartirishlarning faqatgina Iqtisodiyot va moliya vazirligi bilan kelishilgan holda amalga oshirilishi byudjet mablag‘laridan oqilona foydalanishda qiyinchiliklarni yuzaga keltirayotganligiga e’tibor qaratdi.

Qonun loyihasi bilan O‘zbekiston Respublikasining Byudjet kodeksiga o‘zgartirish kiritilib, yuqorida qayd etilgan muammo, ya’ni mazkur xarajatlar bo‘yicha o‘zgartirishlarni Iqtisodiyot va moliya vazirligi bilan kelishish amaliyoti bekor qilinmoqda.

Qizg‘in muhokamadan so‘ng qonun loyihasi deputatlar tomonidan ikkinchi o‘qishda qabul qilindi.

Parlament so‘roviga yuborilgan javob ko‘rib chiqildi

Kun tartibidagi navbatdagi masala – maktabgacha va maktab ta’limi vaziri E. Karimovaning “Ta’lim tashkilotlarida yoshlarni milliy qadriyatlar va vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga yo‘naltirilgan Milliy tarbiya modelini ishlab chiqish borasida amalga oshirilayotgan ishlar to‘g‘risida” parlament so‘roviga javobi ko‘rib chiqildi.

Taqdim etilgan javobga ko‘ra, keyingi yillarda mamlakatimizda yosh avlodni milliy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash, uzluksiz ta’lim tizimida yagona g‘oyaviy tarbiyani shakllantirish, yoshlarning intellektual salohiyati, ongu tafakkuri va dunyoqarashini kengaytirish, vatanparvarlik, xalqqa muhabbat va sadoqat fazilatlarini rivojlantirish borasida tizimli ishlar amalga oshirilmoqda.

Xususan, 2025/2026 o‘quv yilidan boshlab barcha ta’lim tashkilotlarida “Kelajak soati” mashg‘ulotlari yo‘lga qo‘yildi. Mazkur loyiha 11,8 mln. nafardan ortiq o‘quvchilarni qamrab olgan bo‘lib, mashg‘ulotlar 389 ming nafar pedagog tomonidan olib borilayotir. Yuzlab ssenariylar, videodarslar va metodik materiallar tayyorlanib, raqamli platforma orqali barcha ta’lim muassasalariga yetkazilmoqda.

Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash borasida ham tizimli ishlar amalga oshirilyapti. Mudofaa vazirligi bilan hamkorlikda deyarli barcha umumta’lim maktablarida “Vatan tayanchi”, “Jasorat maktablari” faoliyati yo‘lga qo‘yildi hamda iqtidorli yoshlarni qo‘llab-quvvatlashning yangi mexanizmlari joriy etildi.

Parlament so‘roviga javobda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan tarbiya siyosati yangi bosqichga ko‘tarilib, ilk bor O‘zbekistonning Milliy tarbiya modeli ishlab chiqilayotgani aytilgan. Model doirasida yoshlarda milliy o‘zlikni anglash, ajdodlar merosiga hurmat, milliy g‘urur, vatanparvarlik, qonunga hurmat, tanqidiy fikrlash, mediasavodxonlik va axborot xavfsizligi bo‘yicha barqaror kompetensiyalarni shakllantirish ustuvor vazifalardan biri etib belgilangan.

Shuningdek, tarbiya fani mazmuni Milliy tarbiya modeli asosida qayta takomillashtirilmoqda. Ilg‘or xalqaro tajribalar chuqur tahlil qilinib, yangi davlat ta’lim standartlari va o‘quv dasturlarida vatanparvarlik, milliy qadriyatlarga sadoqat, ijtimoiy odob va faol fuqarolik kabi asosiy kompetensiyalar ustuvor yo‘nalish sifatida mustahkamlanmoqda. Bundan tashqari, milliy tarbiya modelini hayotga samarali tatbiq etishda raqamli texnologiyalar ham muhim o‘rin tutadi. Shu maqsadda ishga tushirilgan “milliytarbiya.uz” platformasi orqali pedagoglar, o‘quvchilar va ota-onalar uchun yagona raqamli metodik muhit shakllantirilmoqda.

Berilgan javobga ko‘ra, kelgusi o‘quv yilidan boshlab mazkur platformaning imkoniyatlari yanada kengaytirilib, ota-onalar bilan hamkorlikning raqamli mexanizmlari, o‘quvchilarning tarbiyaviy rivojlanishini baholash tizimi hamda elektron portfoliolarni yuritish amaliyoti joriy etilishi rejalashtirilgan.

Deputatlarning ta’kidlashicha, sohada amalga oshirilayotgan ko‘lamli islohotlar Yangi O‘zbekiston taraqqiyotining ma’naviy poydevorini mustahkamlash, milliy qadriyatlarga sodiq, zamonaviy bilim va yuksak fuqarolik mas‘uliyatiga ega avlodni tarbiyalash, mamlakatning intellektual va ma’naviy salohiyatini yanada yuksaltirishga xizmat qiladi. Milliy tarbiya modeli esa inson kapitalini rivojlantirish, jamiyatda milliy birlik va ijtimoiy hamjihatlikni mustahkamlash hamda Uchinchi Renessans poydevorini barpo etishning muhim institutsional asoslaridan biri bo‘ladi.

Majlisda vazirlik tomonidan ta’lim tashkilotlarida yoshlarni milliy qadriyatlar va vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga yo‘naltirish bo‘yicha Milliy tarbiya modelini ishlab chiqish borasida muayyan ishlar amalga oshirilayotgani qayd etilib, deputatlik korpusi mazkur masala ijrosi ustidan doimiy parlament va deputatlik nazoratini ta’minlashi lozimligi ta’kidlandi.

Parlament so‘roviga javobda ko‘tarilgan masalalar bo‘yicha atroflicha ma’lumotlar taqdim etilganligi aytilib, vazirning javobi ma’lumot uchun qabul qilindi.

Agentlik direktoriga parlament so‘rovi yuborildi

Davlat aktivlarini boshqarish agentligi direktori S. Murodovga “Davlat mulkini xususiylashtirish borasida olib borilayotgan ishlar to‘g‘risida” Qonunchilik palatasining parlament so‘rovini yuborish haqidagi masala ko‘rib chiqildi.

Keyingi yillarda mamlakatimizda davlatning iqtisodiyotdagi ishtirokini qisqartirish, xususiy sektor ulushini kengaytirish hamda davlat ishtirokidagi korxonalarning raqobatbardoshligini kuchaytirishga qaratilgan islohotlar amalga oshirilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasining “Davlat mulkini boshqarish to‘g‘risida”gi Qonuni asosida davlat mulkini xususiylashtirish, davlatning iqtisodiyotdagi ishtirokini bosqichma-bosqich qisqartirish, davlat ishtirokidagi korxonalarning ichki va tashqi bozorlarda raqobatbardoshligini oshirish bo‘yicha zaruriy choralar ko‘rilmoqda.

Davlat aktivlarini xususiylashtirish bo‘yicha alohida dasturlarning qabul qilinishi “O‘zbekiston – 2030” strategiyasida belgilangan maqsadlarga erishishga, xususan, 2030-yilga qadar iqtisodiyotda nodavlat sektor ulushini 85 foizga yetkazish hamda davlat ishtirokidagi korxonalar sonini 6 baravarga qisqartirishga xizmat qiladi. Milliy tarbiya modeli esa inson kapitalini rivojlantirish, jamiyatda milliy birlik va ijtimoiy hamjihatlikni mustahkamlash hamda Uchinchi Renessans poydevorini barpo etishning muhim institutsional asoslaridan biri bo‘ladi.

So‘nggi yillarda davlat ishtirokidagi korxonalarning aksiya paketlari va ulushlari, ko‘chmas mulk obyektlari hamda qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yer uchastkalari ochiq elektron savdolarga chiqarilmoqda. 2021 – 2024-yillarda jami 47 trln. so‘mlik davlat aktivlari sotilgan. Bu oldingi o‘n yillikdagi ko‘rsatkichdan 30 baravar ko‘pdir. Amalga oshirilgan choralar natijasida davlat ishtirokidagi korxonalar soni ikki baravar qisqargan, iqtisodiyotdagi davlat ulushi esa 13 foiz kamaygan.

Xususan, korxonalar va xo‘jalik jamiyatlarining ustav fondlaridagi aksiyalar, yer uchastkalariga bo‘lgan huquqlar hamda davlat mulki hisoblangan boshqa mol-mulkni realizatsiya qilishdan tushgan mablag‘larni respublika byudjetiga o‘tkazish rejasi 66,3 foiz bajarilgan, davlat mulki bo‘lgan bo‘sh turgan noturarbino va inshootlarni, shuningdek, foydalanilmayotgan ishlab chiqarish maydonlarini ijaraga berish bo‘yicha belgilangan reja esa atigi 34 foizga ijro etilgan. Natijada har ikkala maqsadli indikator bo‘yicha belgilangan ko‘rsatkichlarga to‘liq erishilmagan.

Bundan tashqari, agentlik tomonidan savdoga chiqarilgan davlat va davlat ishtirokidagi korxonalarning 1 321 ta davlat aksiya paketi bo‘yicha monitoring ishlari to‘liq yuritilmagan. Mazkur holatlar davlat aktivlarini realizatsiya qilish va ulardan samarali foydalanish mexanizmlarini yanada takomillashtirish, xususiylashtirish jarayonlarida ochiqlik va hisobdorlikni kuchaytirish, shuningdek, belgilangan vazifalar ijrosi ustidan tizimli nazorat o‘rnatish zaruratini ko‘rsatmoqda.

Majlisda shundan kelib chiqib, Davlat aktivlarini boshqarish agentligi direktoriga parlament so‘rovi yuborish bo‘yicha qaror qabul qilindi.

“Xalq so‘zi”.

30-iyul kuni Toshkentda O‘zbekiston Respublikasi Turizm qo‘mitasi va Hindistonning O‘zbekistondagi elchixonasi hamkorligida xalqaro vegan (faqat o‘simlik mahsulotlaridan tayyorlangan) taomlar festivali o‘tkaziladi.

YAGONA VATAN, YAGONA XALQ BO‘LIB, YANGI HAYOT VA KELAJAK YARATAYLIK!

Mustaqillik – bu shunchaki davlatning o‘z chegaralari yoki ramzlariga ega bo‘lishi emas, avvalo, xalqning o‘z taqdirini o‘zi belgilash, erkin va farovon hayot qurish huquqi. Agar davlat mustaqil bo‘lmasa, uning iqtisodiy, siyosiy va ma’naviy taraqqiyot yo‘lini boshqalar belgilaydi. Mustaqillik esa millatga o‘z milliy manfaatlariga tayangan holda qaror qabul qilish, boyliklarini xalq farovonligi yo‘lida safarbar etish, kelajagini o‘z orzu-maqsadlari asosida qurish imkonini beradi.

Yana shu ham ma’lumki, tarixda va bugungi hayotimizda mustaqil davlatlarning barchasi ham to‘la-to‘kis baxtga, farovonlikka erisha olmagan. O‘zaro raqobat kuchaygan, geosiyosiy o‘yinlar avj olgan dunyoda mustaqillik bergan beqiyos imkoniyatlardan to‘g‘ri foydalana olgan, har qanday sharoitda milliy manfaatlarini ustuvor qo‘ya bilgan, inson qadrini yuksaltirishni bosh maqsad qilib belgilagan davlatgina chinakam erkinlikka erisha oladi, xalqining ezgu niyatlarini ro‘yobga chiqaradi.

Bugun Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev rahbarligida Yangi O‘zbekiston aynan ana shu yo‘ldan bormoqda. Istiqlolning ilk yillarida, bundan 35 yil muqaddam boshlangan tarixiy o‘zgarishlar – davlat suverenitetini mustahkamlash, iqtisodiy qaramlikdan xalos bo‘lish, mustaqil taraqqiyot yo‘lini belgilab olish, xalqning milliy o‘zligini anglashi, odamlarning milliy g‘ururini o‘stirish borasidagi ishlar keyingi o‘n yilda butunlay yangicha ko‘lam, shakl va mazmun-mohiyat kasb etdi.

Davlatimiz rahbarining qat’iy siyosiy irodasi, oqilligi, ulkan salohiyati, vatanparvarligi, xalqsevarligi tufayli yurtimizda yangi davlat va jamiyat qurish, Vatanimizning suratu siyratini yangilash, hayot farovonligini ta’minlash, inson qadrini ulug‘lash, jamiyatda adolat, qonun ustuvorligiga erishish, yoshlarga qanot bag‘ishlash yo‘lida amalga oshirilayotgan islohotlar hamda qo‘lga kiritilayotgan yutuqlarni dunyo jamoatchiligi, xalqaro ekspert va mutaxassislar ham e’tirof etyapti.

Eng muhimi, ko‘p millatli xalqimiz ana shu tarixiy islohotlarning harakatlantiruvchi kuchi, yengilmas qudrati. Shu ma’noda, ertayu kech izlanishdan to‘xtamay, fidoyilik, jonkuyarlik, matonat ko‘rsatib mehnat qilayotgan, zimmasidagi vazifalarni sidqidildan bajarayotgan yurtdoshlarimiz, mamlakatimizda faoliyat yuritayotgan xorijliklar, mana shu el-yurt taqdiriga o‘zini daxldor sezgan har bir inson, shubhasiz, bugungi dorilamon kunlarning, nurli kelajakning bunyodkorlaridir.

Quyida ana shu matonat va shijoat sohiblaridan ayrimlarining fikr-mulohazalari, dil so‘zlari gazetxonlar e’tiboriga havola qilinmoqda.



BUGUNGI PARLAMENT KECHAGI EMAS, DEPUTATLAR HAM

Gulira’no XOLIQOVA,
xalq deputatlari Farg‘ona viloyati Kengashi deputati:




– Yangi O‘zbekistonda bugungi parlament kechagi parlament emas, deputatlar ham kechagi deputatlar emas. Ularning faoliyat qamrovi ham, ishga yondashuvi ham, mas’uliyati ham tubdan farq qiladi. Jumladan, mamlakatimizdagi hayotbaxsh islohotlarga hamohang tarzda Prezidentimiz tashabbusi bilan mahalliy Kengashlar vakolati kengayib, deputatlik so‘rovi, deputatlik nazorati kabi yo‘nalishlarda mutlaqo yangi tizim shakllandi. Avvallari mahalliy Kengashlar deputatlari nomigagina faoliyat yuritar, hudud ijtimoiy-siyosiy hayotida deyarli qatnashmas, bu borada ularning borligi ham, yo‘qligi ham bilinmasdi. Bugun esa manzara butunlay boshqacha.

Hozirgi kunda viloyat Kengashi agrar va suv xo‘jaligi masalalari bo‘yicha doimiy komissiya a’zosi sifatida har haftada bir marotaba o‘tkaziladigan yangi qonun loyihasi muhokamalari jarayonida faol qatnashib, huquqiy hujjatlarni jiddiy chig‘iriqdan o‘tishi, unda el-yurt manfaati to‘liq aks etishi uchun astoydil intilaman. O‘z navbatida, o‘zim saylangan Rishton tumanidagi saylov okrugida muntazam ravishda sayyor qabullar o‘tkazib boraman. Deputatlik so‘rovlarimizga belgilangan muddatda javob berilmasa, mas’uliyatsiz mansabdorlarga prokuratura chora ko‘radi. Shu bois so‘rovlarimiz oldingidek bee’tibor qoldirilayotgani yo‘q. Mahalliy hokimliklarda javobgarlik tuyg‘usi kuchaydi, shu bilan birga, jamoatchilik nazorati ham yaxshilanyapti.

Ekologik partiyadan saylangan deputat sifatida ona tabiatni asrash, sog‘lom turmush tarzini targ‘ib etish, qishloq xo‘jaligi tarmoqlariga ilm-fan yutuqlari, ilg‘or agrotexnologiyalarni keng qo‘llash singari masalalar doimiy e’tiborimda. Misol uchun, bu yil viloyatda 40 ming gektardan ortiq maydonlarda suv tejovchi texnologiyalarni joriy qilish bo‘yicha amaliy ishlar davom etmoqda. Saylov okrugimdagi o‘nga yaqin mahallalarda ham muhim hayotiy masalalar – ichimlik suvi, ichki yo‘llarni asfaltlash, bandlik muammolari ijobiy yechim topyapti.

Yaqinda tashkil etilgan viloyat deputat ayollar klubi yordamida qisqa davrda saylov okrugimdagi yuz nafardan ziyod xotin-qizlarni tadbirkorlikka jalb qilish hamda kasb-hunarga o‘qitishga erishdik. Endilikda bu oila bekalarining o‘z biznesi va farovon hayoti bor. Ezgu tashabbuslar samarasi sifatida okrugimda “qizil” hudud toifasidagi mahalla qolmadi. Yaqin istiqbolda esa okrugdagi o‘nga yaqin mahallalarning ishsizlik va kambag‘allikdan xoli hudud maqomiga ega bo‘lishini maqsad qilganman.

Bugun shunday vakolatlar va imkoniyatlarga ega bo‘layotgan deputat bir qadam oldinda bo‘lishi kerak. U endi har jabhada aqlli bo‘lishga majbur. Prezidentimizning Farg‘ona viloyatiga har safargi tashrifi chog‘ida bu borada katta motivatsiya olaman, g‘ayratimga g‘ayrat qo‘shiladi. Bu olis qishloqdagi oddiy oilada tug‘ilib o‘sgan o‘zbek qizi uchun mustaqilligimiz tuhfa etayotgan eng aziz, eng qadrli ne’matlardir.



SAYYOHLAR TALPINADIGAN JOZIBADOR MANZIL

Erslan Gazali IBRAHIM,
“EGI Resources” kompaniyasi bosh direktori (Indoneziya):

– Dunyoda turizmning 200 dan ortiq turlari bo‘lib, ular orasida ziyorat turizmi tez rivojlanayotgan, istiqbolli yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. Shu bois ham O‘zbekistonda bu sohaga ustuvor ahamiyat qaratilmoqda.

Jumladan, Samarqand zaminida davlatingiz rahbari tashabbusi bilan Imom Buxoriy majmuasi buyuk muhaddisning islom olamida tutgan yuksak mavqei, ulkan salohiyatiga munosib tarzda qaytadan bunyod etilgani butun islom dunyosi uchun beqiyos ahamiyatga ega bo‘ldi.

Bu yerda nafaqat ibodat, balki keng qamrovli ilmiy tadqiqotlar uchun ham barcha sharoitlar yaratilgan. Ayniqsa, majmuaga tutash hududda xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi va Hadis ilmi maktabining tashkil etilgani diqqatga sazovor. Bu markazlar buyuk muhaddisning boy merosini chuqur o‘rganish, noyob qo‘lyozmalarni tadqiq etish va hadis ilmi bo‘yicha yuksak malakali mutaxassislarni yetishtirishga xizmat qiladi. Shu ma’noda, ushbu maskan nafaqat tarixni saqlovchi muzey, balki kelajak avlod uchun ilm-fan dargohiga aylanishi, shubhasiz.



Majmuaning to‘rt burchidagi 75 metrlik minoralar va 10 ming kishilik masjid esa uning naqadar ulug‘vorligini ko‘rsatib turibdi. Shuningdek, majmua qoshida tashkil etilgan turizm markazida zamonaviy infratuzilma yaratilib, shinam mehmonxonalar, xizmat ko‘rsatish va servis nuqtalari barpo qilingani e’tiborga molik. Bu kabi tashabbuslar Samarqandni musulmonlar uchun yanada jozibador maskan sifatida rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Samarqand viloyati hokimligi delegatsiyasining Indoneziyaga tashrifi davomida (kompaniyamiz bilan imzolangan hamkorlik memorandumi ijrosi doirasida) Imom Buxoriy majmuasi yaqinida yangi turizm maskani – “Kampung Indonesia” (Indoneziya mahallasi)ni tashkil qildik.

Mazkur loyiha indoneziyalik tashrif buyuruvchilarga mo‘ljallangan bo‘lib, bu yerda milliy an’analarga mos xizmatlar yo‘lga qo‘yilgan. Kompleks tarkibida zamonaviy va qulay mehmonxona, shuningdek, Indoneziya milliy taomlarini taklif etuvchi restoran faoliyat yuritmoqda. Bu esa indoneziyalik mehmonlarga o‘z yurtimizdagi muhitni his qilgan holda Samarqand ziyoratini amalga oshirish imkonini beradi.

Eng muhimi, Prezident Shavkat Mirziyoyev Janobi Oliylari rahbarligida O‘zbekiston bugun butun dunyoga ochilmoqda. Keng ko‘lamli tarixiy yangilanishlar mamlakatingizning obro‘-e’tiborini oshirib, uni jahonning turli burchaklaridan sayyohlar talpinadigan jozibador manzilga aylantirmoqda.

QULAY INVESTITSIYAVIY MUHIT BERGAN IMKONIYAT

Kadir ROZI,
investor
(Xitoy Xalq Respublikasi):

– O‘zbekiston – mustaqilligining dastlabki davridanoq avtomobilsozlik sanoatini yo‘lga qo‘ygan davlat sifatida xorijiy investorlarning e’tiborini tortgan mamlakat. Prezident Shavkat Mirziyoyev tomonidan keyingi yillarda investitsiyaviy muhitni yaxshilash, xorijiy sarmoyadorlar uchun qulay shart-sharoitlar yaratish davlat siyosati darajasiga ko‘tarilgani biz, investorlarning o‘zaro manfaatli hamkorlikka ishonchimizni tobora mustahkamlab boryapti.

Mana, Namanganda “Kadeer Parts Industry” xorijiy korxonasini ishga tushirganimizga xam sakkiz yil bo‘ldi. Loyihaga 4 mln. AQSh dollari miqdorida sarmoya kiritganmiz. Korxonamizda avtomobil chiroqlari va yoritish qismlari, plastik avtokomponentlar, ayrim avtoaksessuarlar ishlab chiqariladi. Import o‘rnini bosuvchi va eksportbop yuzdan ortiq turdagi komponentlar tayyorlab ichki va tashqi bozorga chiqarilmoqda. Misol uchun, avvalgi yillarda Xitoy, Rossiya, Qozog‘iston, Tojikiston, Qirg‘iziston kabi davlatlarga 100 ming dollarlik mahsulot eksport qilgan bo‘lsak, joriy yilda uning geografiyasini yanada kengaytirib, 200 ming dollarga yetkazishni rejalashtirganmiz. Bundan tashqari, o‘tgan yili 10 mlrd. so‘mlik mahsulot ichki bozorga yetkazib berildi. Korxonamizda 100 nafarga yaqin aholi bandligi ta’minlangan.

Yurtingizda yaratilgan qulay investitsiyaviy muhit – yer maydoni, elektr, gaz, suv va logistika tarmoqlari bilan ta’minlash, eksportbop mahsulot ishlab chiqarish har tomonlama qo‘llab-quvvatlanayotgani korxonamizning barqaror rivojlanishida muhim omil bo‘lyapti. Bu boradagi ishlar keng ko‘lam kasb etgani natijasida O‘zbekiston xorijlik sarmoyadorlar uchun jozibador mamlakatga aylanmoqda.

«O‘Z YURTINGNING YANTOG‘ICHA BO‘LOLMAS...»

Abror NAMOZOV
(Jarqo‘rg‘on tumani):

– Avvallari men shunday o‘ylar edim: xorijga borib, ko‘p pul topaman. Oyiga 1000, 1200 dollar uyga yuboraman. Bir yilda 150 million so‘m pul jamg‘araman. Qarabsizki, tezda boyib ketaman!

Xorijga ketdim. Tinim bilmay ishladim. Ancha-muncha pul ham topdim. Lekin... Bir kuni uyga keldimu ichimdan bir xayol o‘tdi: “Qachongacha uzoqda sargardon yuraman? Axir Vatanimizda ham harakat qilganga hamma sharoit bor-ku! Prezidentimizning o‘zi yoshlarga e’tibor qaratib, ularning bilim olishi, ishli, daromadli bo‘lishi, tadbirkorga aylanishi uchun barcha qulaylikni yaratib berayotgan bo‘lsa!”

Shu-shu chetga qaytib bormadim. Ota-onamning bag‘rida, bolalarimning yonida, el ichida yuray dedim... Surxondaryoning tuprog‘iday tuproq, suviday suv bormi? Mehnat qilaman, hunar o‘rganaman, tomorqani baraka manbaiga aylantiraman. Tag‘in savdo bilan ham shug‘ullanaman, deb o‘z oldimga maqsad qo‘ydim.



Ha, shunday ham qildim. Hozir xorijda sarson-sargardon yurganim yo‘q. El qatori yashayapman. Mashina oldim. Do‘konim bor. Ishlarim yurishib ketdi. Bu borada mamlakatimizda xorijdan, mehnat migratsiyasidan qaytib kelgan shaxslarning reintegratsiyasini ta’minlash, ularning tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanishi uchun qulay shart-sharoitlar yaratish bo‘yicha amalga oshirilayotgan kompleks chora-tadbirlar asqatdi.

Bugun yonimga kelib hol-ahvol so‘raganlarga g‘urur bilan: “Dunyoning istalgan yeriga boring, O‘zbekistonday yurt yo‘q. Vatanimizning odamlari oltin. Insoniylik bor bu yerda. Yetti pushtim shu yerda yashagan va nasibasini Surxondaryodan topgan. Men ham shunday qilyapman” deyman.

Bilaman, ba’zi yoshlar xorijga borib, tezda ko‘p pul topgisi keladi. Biroq hamma yerning o‘z tosh-tarozisi borligini unutib qo‘yadi. Menimcha, baraka insofda, qanoatda, tejamkorlikda. O‘z yurtingda berilgan imkoniyatdan samarali foydalanishda! Kishi qiynalib bo‘lsa ham o‘qib-o‘rganib, hunar egallasa, yaxshi yashaydi. Zero, mashhur qo‘shiqda aytilganidek, “Yot ellarning bog‘i bilan bog‘chasi, O‘z yurtingning yantog‘icha bo‘lolmas”.

“MUZ”LARNI ERITGAN QAT’IYAT

Zafar TO‘YCHIYEV,
Halima Xudoyberdiyeva nomidagi ijod maktabi direktori o‘rinbosari:

– Atigi bir necha chaqirim narida yashaydigan jigarlar bilan yillar davomida bordi-keldi qilmaslik, istagan vaqtda ular bilan diydorlashmaslik mumkinmi? Ha, mumkin ekan. Biz uzoq yillar davomida ana shunday qismat bilan yashadik.

Shaxsan o‘zim qariyb 20 yil mobaynida Tojikiston Respublikasining bizdan uzoq bo‘lmagan Javkandak qishlog‘iga borolmadim. Shuncha yil ichida o‘sha qishloqda yashaydigan bobomning aka-ukalari, farzandlari va boshqa qarindoshlar ham biznikiga kelisholmadi. Hatto qarindoshlarga yaqinlarining janozalarida ishtirok etish ham nasib qilmadi. Chunki o‘sha vaqtlarda qo‘shni davlatlardan o‘zaro o‘tish-kirish bugungidek emin-erkin emasdi. Ta’bir joiz bo‘lsa, qo‘shni eshiklar tambalangandi. U davlatdan bunisiga borish uchun elchixonalaru boshqa idoralardagi uzundan-uzoq rasmiylashtirish va tekshirishlardan o‘tish, bu jarayonlarga juda ko‘p vaqt, asab va mablag‘ sarflash kerak edi.



Shukrki, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning siyosiy irodasi, qat’iyati bilan ikki davlat o‘rtasidagi “muz”lar eridi. Markaziy Osiyoda butunlay yangicha muhit qaror topdi. O‘zaro qo‘shni davlatlar kelajak bir-biriga bog‘liq ekanini angladi va hamjihatlikda harakat qila boshladi.

Xususan, O‘zbekiston va Tojikiston o‘rtasidagi do‘stona aloqalar yo‘lga qo‘yildi. Chegaralar ochildi – bugun istagan vaqtda, hech qanday qiyinchiliksiz qo‘shni davlatga borib-kelyapmiz. To‘yu ma’raka tugul, tug‘ilgan kunlarda ham bir-birimiz bilan diydorlashyapmiz. Deyarli har hafta Javkandakdan biror jigarimiz keladi. Yaqinda bir qarindoshimiz Guliston shahrida davolanib ketdi. Demoqchimanki, o‘zaro bordi-keldilarning osonlashgani viloyatimizda tibbiyot turizmining rivojiga ham katta hissa qo‘shyapti.

Keyingi o‘n yilda mamlakatimiz tanib bo‘lmas qiyofaga ega bo‘ldi, iqtisodiyotimiz jadal o‘smoqda. Shu bilan birga, o‘nlab mamlakatlar bilan yaqin hamkorlik o‘rnatildi. Yangi O‘zbekiston har jihatdan dunyoga yaqindan tanildi va jahon sahnasida o‘zining munosib o‘rniga ega bo‘ldi. Bularning bari O‘zbekistonning izchil olib borayotgan ko‘p vektorli tashqi siyosati samarasi, albatta.

“Xalq so‘zi”.

Ayni paytda Misr Arab Respublikasining Qohira shahrida o‘tkazilayotgan “EDUGATE – 2026” xalqaro ta’lim ko‘rgazmasida “Study in Uzbekistan” loyihasi doirasida O‘zbekiston oliy ta’lim tashkilotlari o‘z ta’lim dasturlari, ilmiy salohiyati va xalqaro imkoniyatlarini namoyish etmoqda.

Xalq so‘zi
Narodnoe slovo

MUASSISLAR:
O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Kengashi
O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashi

Bosh muharrir O‘tkir RAHMATOV

2020-yil 25-martda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 0001-raqam bilan ro‘yxatga olingan. Nashr indeksi – 229. Buyurtma G-642. 22 170 nusxada bosildi. Hajmi – 2 taboq. Ofset usulida bosilgan. Qog‘oz bichimi A-2. Bahosi kelishilgan narxda.

Gazetamiz haqidagi ma’lumotlarni yuklab olish uchun QR-kodini telefoningiz orqali skaner qiling.

TELEFONLAR:
Devonxona 71-259-74-51; kotibiyat 71-259-74-53;
e’lonlar 71-259-74-55.

ISSN 2010-8788

Tahririyatga kelgan qo‘lyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.

Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.

Gazeta tahririyat kompyuter markazida terildi hamda operator M. Begmuratov tomonidan sahifalandi.

Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli chop etilishiga “Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi mas’ul.
Bosmaxona telefoni: 71-233-11-07.

MANZILIMIZ:
100066,
Toshkent shahri,
Islom Karimov ko‘chasi, 55-uy.
Navbatchi muharrir A. Aliqulov.
Musahhih S. Islomov.

“Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi. Korxona manzili:
Buyuk Turon ko‘chasi, 41. O‘zA yakuni – 23.51 Topshirildi – 01.00 1 2 3 4 5 6